



ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:
<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>



COVERAGE OF THE SOCIO-ECONOMIC LIFE OF SAMARKAND BEKSTVO IN THE MEMOIRS OF PARTICIPANTS IN MILITARY MISSIONS OF THE 18TH-19TH CENTURIES

Mekhriddin Mamanov

Doctoral student

Samarkand State University named after Sharof Rashidov

Samarkand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Samarkand, Eastern India, Koktash, N. Khanikov, Russia, Shohab, Nagmon, Bazaar, Shiraz, Sogd, Ofaryncent, Ankhon, Amir Haydar, Amir Shahmurat, Zarafshan.

Received: 11.02.25

Accepted: 13.02.25

Published: 15.02.25

Abstract: In this article, the role of Samarkand in the entire world history is as follows. As one of the cities that made an important contribution to world civilization, it is noted that Samarkand is known in its memoirs, and its historical monuments are known throughout the world. The ambassadors were surprised by the fact that their historical monuments had been preserved for many centuries. It is noted that in Samarkand there still exists the grave of Amir Temur, made of artificial stone, and there are more historical monuments in this city.

SAMARQAND BEKLIGINING IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTINING HARBIY MISSIYALAR ISHTIROKCHILARI ESDALIKLARIDA YORITILISHI XVIII-XIX ASRLARDA

Mehriddin Mamanov

tayanch doktorant

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Samarqand, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Samarqand, Ost-Indiya, Ko'ktosh, N.Xanikov, Rossiya Shoxob, Nag'mon, Bozor, Sheroz, Sug'd, Ofarinkent, Anhor, Amir Haydar, Amir Shohmurot, Zarafshon.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Samarqandning butun jahon tarixida tutgan o'rni shunigdek. Dunyo sivilizatsiyasiga muhim hissa qo'shgan shaharlardan biri sifatida harbiy missiyalar ishtirokchilari Samarqandning o'z esdaliklarida malumotlar berilganligi, tarixiy obidalari butun dunyoga mashhurligi takidlanadi. Tarixiy obidalari ularning uzoq asrlar mobaynida saqlanib

qolganligi elchilarni hayratga solgan.Amir Temurning yasama toshidan ishlangan qabri Samarcandda haliyam mavjudligini, mazkur shaharda bundan ham kuproq tarixiy obidalar borligi takidlanadi.Buxoro amirligida XVIII asrda Samarcandning tutgan o‘rniga alohida to‘xtalib o‘tilgan esdaliklarda.

ОСВЕЩЕНИЕ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ САМАРКАНДСКОГО БЕКСТВА В ВОСПОМИНАНИЯХ УЧАСТНИКОВ ВОЕННЫХ МИССИЙ XVIII-XIX ВЕКОВ

Мехридинн Маманов

Докторант

*Самарканского государственного университета имени Шарофа Рашидова
Самарканд, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Самарканд, Восточная Индия, Кокташ, Н. Хаников, Россия, Шохаб, Нагмон, Базар, Шираз, Согд, Офаринкент, Анхор, Амир Хайдар, Амир Шахмурат, Зарафшан.

Аннотация: В данной статье роль Самарканда во всей мировой истории заключается в следующем. Как один из городов, внесших важный вклад в мировую цивилизацию, отмечается, что Самарканд известен в своих мемуарах, а его исторические памятники известны во всем мире. Послов удивил тот факт, что их исторические памятники сохранились на протяжении многих веков. Отмечается, что в Самарканде до сих пор существует могила Амира Темура, выполненная из искусственного камня, а исторических памятников в этом городе больше.

Samarqandning butun jahon tarixida tutgan o‘rni buyukdir. Chunki Samarqand dunyo sivilizatsiyasiga muhim hissa qo‘shgan shaharlardan biridir. Shuning uchun ham Samarqandga kuplab davlatlardan elchilar,sayohlar kelib shaharning topografiyasi va shaharning ijtimoiy iqtisodiy hayotiga qiziqib, aholi xo‘jalik hayoti, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi va shahar bo‘ylab joylashuvini o‘rganishgan.Samarqand XVI-XIX asrning birinchi yarmida Buxoro xonligida kechgan jarayonlarda muhim o‘rin tutdi

N.V.Xanikov esa Samarqand va uning atroflari “uch ariq suv bilan sug‘orilganligini”[1], keltiradi. Shahar markazidan aholini suv bilan ta’minlaydigan katta ariq o‘tgan. Bu ariq kichik irmoqlarga ajralib, xonadonlarga suv yetkazib bergen, bog‘ va tomorqalarni sug‘organ.

Abu Tohirxojaning “Samariya” asarida shahar iqlimining ajoyib va mo‘tadil ekani, shuning uchun uni “firdavsmonand” – jannat misoli, deb keltiriladi. Yozda Samarqand nisbatan salqin va iqlimi mo‘tadil ekani, har tomondan esuvchi mayin shamollar va havo kayfiyatni ko‘tarishi, ruhiy sokinlikni ta’minlashi haqida ma’lumot bergen[3]. Iqlimi, tabiatni va muhitni odamlarning

“firdavsmonand” shaharda yashashga bo‘lgan intilishini kuchaytirgan. Bu o‘z navbatida, urbanizatsiya jarayoniga va aholining demografik holatiga ta’sir ko‘rsatgan.

XIX asrning 60 yillari oxirlarigacha Samarqand shahri hududi kengayib borib, N.V.Xanikovning ma’lumot berishicha, “shahar aylanasi 13 verstga, uning kvadrat yuzasi 2280000 sajenga yoki 2533,31 tanobga teng bo‘lib, Buxoro shahri hududidan 500 tanobga katta”[4] bo‘lgan. Bu davrda shahar kengayishi va urbanizatsiya jarayoni jadallashgani haqida fikrimizni N.V.Xanikovning ushbu ma’lumotlari ham tasdiqlaydi.

Shaharning rivojida, ayniqsa, ichki va tashqi savdo alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Qadimdan ravnaq topgan Samarqand bozori shaharning taxminan 1/3 qismini tashkil etib, bir tomoni Registon maydonidan Shohizinda darvozasigacha, ikkinchi tomoni Qalandarxona va So‘zangaron darvozalarigacha cho‘zilgan edi. Har kuni chakana savdo, chorshanba, yakshanbada esa katta bozor bo‘lgan. N.Xanikov bu haqda shunday yozgan: «Har kungi savdodan tashqari, Samarqand shahrida haftada 2 ta katta bozor kunlari bo‘lib, unda viloyatning hamma tumanlaridan odamlar kelishib, savdo qilganlar. Bozor juda gavjum bo‘lib, mollar xilma-xil turlarda bo‘lgan» [5]. Shahar tomondan bozorga kirish joyida asosan ot, eshak, sigir, qo‘y bozori joylashgan, bu yerda yana bug‘doy, arpa bilan ham savdo qilganlar. Registon maydoniga chiqishda madrasalar qatorida janubiy tomondan do‘konlar joylashgan. Bu maydon hamma vaqt odamlar bilan gavjum bo‘lib, bu yerda kundalik ehtiyoj mollari sotilgan. Maydonning asosiy qismini non sotuvchilar egallab, xilma-xil nonlarni sotganlar. Non sifatiga ko‘ra baholanib, 1 /3 dan 1 tangagacha turgan Samarqand nonlari qadimdanoq Turkiston o‘lkasida shuhrat qozongan. Registonda mevasabzavot sotuvchilar turli xil mevalar, sabzavot bilan birga quritilgan mevalarni ham sotganlar. Shu uzun qatorda yana qaynatilgan va qovurilgan go‘sht, sihli kabob, kartoshkali, go‘shtli go‘mmalar, palov, qovurilgan baliq bilan ham savdo qilingan. Yoz kunlari ular orasida muzdekkichimlik suv sotuvchilar ham ko‘p bo‘lgan. Bozorda ot va eshaklar ustiga ortilgan o‘tin sotib yurgan kishilarni ham ko‘rish mumkin edi. Ular o‘tinlarni tog‘li va chekka qishloqlardan keltirib sotganlar. 1869-1870 yillardagi qish oylarida bir bog‘ o‘tin Samarqand shahar bozorida 9-10 so‘m turgan. Bozorda pul almashtiruvchi-sarroflar ham bo‘lib, ular mis, kumush tangalarni qog‘oz pullarga almashtirganlar. Mahalliy pullar - Buxoro, Qo‘qon mis tangalaridir. Buxoroning oltin va kumush tangalari ham Samarqandda pul muomalasida birinchi o‘rinda turgan. Bir so‘m qog‘oz pul chaqqanda misga 6-7 tiyin, kumushga 8-10 tiyin qilib almashtirilgan. Avvalgi asrlarda bo‘lganidek, XIX asrda ham O‘rta Osiyo davlatlari, jumladan, Buxoro amirligiga Rossiya va Yevropadan turli elchilik missiyalari, tashkil qilingan sayyohlar tashrif buyurib turgan. Ularni O‘rta Osiyoning tabiiy geografiyasi, yo‘llar, suv manbalari, aholining urf-odatlari va boshqa ko‘plab ma’lumotlar qiziqtirgan hamda ular o‘z hisobot va safar kundaliklarida ushbu masalalarni qayd qilib borganlar. Biz ushbu maqolada XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligiga tashrif

buyurgan A. Byorns hamda Ye.K. Meyyendorflarning asarlarida mavjud bo‘lgan Samarqandga oid ma’lumotlarni tahlil qilamiz. Ye.K. Meyyendorf Rossiya imperiyasining rasmiy elchilik missiyasi tarkibida 1820 yilda, A. Byorns Ost-Indiya savdo kampaniyasining vakili sifatida, 1831-1833 yillarda afg‘on savdogari qiyofasida, josuslik maqsadida Buxoro davlatiga tashrif buyurgan. Bevosita Samarqand xususida ma’lumot to‘plash mazkur mualliflarning maqsadiga kirmagan bo‘lsada, ular o‘z asarlarida Samarqand haqida ham ba’zi ma’lumotlarni keltirib o‘tishgan. YE.K. Meyyendorf o‘z asarida dastlab Miyonqol vohasidagi shaharlarni sanab o‘tib, so‘ngra Samarqand xususida to‘xtaladi. Uning yozishicha, Miyonqol vohasida Karmana, Payshanba, Ziyouddin, Xatirchi, Kattaqo‘rg‘on, Yangiqo‘rg‘on, Qarshikeldiyo‘rg‘on, Chelak shaharlari joylashgan. Bularbekliklarning markazlari va yirik aholi maskanlari bo‘lib, muallif ularni shaharlar sifatida qayd qiladi. Unumdar yerda joylashgan mazkur shaharlar ancha keng hududlarni egallagan bo‘lib, badavlat o‘zbeklar bu shaharlarda o‘z uylariga ega bo‘lishgan va u yerlarga ular yozda o‘z chorvalarini boqish maqsadida borganlar[6]. Ye.K. Meyyendorfnig ta’kidlashicha, Buxoro xoni har yili Samarqandga tashrif buyurgan. Aslida bu davrda Buxoro hukmdorlari amir unvoni bilan yuritilgan. Hukmdorlar taxtni egallashi uchun dastlab Samarqaddagi ko‘ktoshga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan. Bu moviy tusli, to‘rtburchak shakldagi marmartosh bo‘lagi bo‘lib, o‘sha paytda Mirzo Ulug‘bek madrasasida joylashgan. Uning ustiga oq kigiz qoplangan. Xonni ushbu kigizga o‘tqazib, to‘rtala burchagidan ulamo, fuqaro, fuzalo va sayyidlar ushlab uch marta ko‘tarishgan. Ushbu ma’lumot o‘ta muhim bo‘lib, hukmdorni taxtga ko‘tarishda aholining barcha asosiy tabaqasi vakillari qatnashganligi, jumladan, quyi qatlama hisoblangan fuqaro vakillari ham chetda qolmaganligini ko‘rsatadi. "Aytishlariga qaraganda, ushbu toshdan maxsus taxt yasashga urinishlar ham bo‘lgan. Ko‘ktosh G‘ozg‘on tog‘idan qazib olingan". Manbada qayd qilinishicha, XIX asrning birinchi choragida Samarqandda 50 mingga yaqin aholi istiqomat qilgan. Bu yerdagi masjid va madrasalar Buxorodagilarga nisbatan chiroyliroq bo‘lib, ularga oq marmardan ishlov berilgan. Amir Temurning ushbu qadimiy qarorgohidan uncha uzoq bo‘lmagan joyda marmar koni topilganligini qayd qilar ekan, muallif Samarqanddagi inshootlarning old qismi Buxorodagi singari koshinkor sirparchinlar bilan qoplanganligini hamda aholining fikriga tayanib, Samarqand koshinlari Buxorodagiga nisbatan go‘zalroq ekanligini ta’kidlaydi. Amir Temur va Temuriylar zamonida bunyod etilgan Samarqand obidalari butun dunyoga mashhur edi. Ularning uzoq asrlar mobaynida saqlanib qolganligi muallifni hayratga solgan. U Amir Temurning yashma toshidan ishlangan qabri Samarqandda haliyam mavjudligini, mazkur shahardan Ulug‘bek rasadxonasi qoldiqlari besamar qidirilayotganligini qayd qilar ekan, Temuriylar sivilizatsiyasi o‘zbeklarning varvarligi qarshisida chekinishi muqarrar ekanligini ta’kidlaydi. Garchi, Shayboniylargacha nisbatan muallif varvarlar sifatida yondashgan bo‘lsa-da, aslida, o‘zbek hukmdorlarining aksariyati ilm-fan va bunyodkorlik homiysi bo‘lganligi tarixdan ma’lum.

Umuman, mualliflarning amirlik shaharlari, xususan, Samarqand shahri haqidagi ma'lumotlari bir-biriga unchalik to'g'ri kelmaydi. Jumladan, YE.K. Meyyendorf Buxoro davlatida ko'plab yirik shaharlar mavjud bo'lganligini, ularning orasida Samarqandning alohida mavqega ega ekanligini ta'kidlasa, A. Borns Buxoro davlatida 150 ming aholiga ega bo'lgan poytaxtdan bo'lak yirik shaharlar mavjud emasligini, Samarqand va Balx allaqachon ahamiyatsiz provinsial shaharlar darajasiga tushib qolganligini, 10 ming aholiga ega bo'lgan Qarshi shahri esa ahamiyati jihatidan ulardan o'zib ketganligini ta'kidlaydi. Samarqand atrofidagi shaharlarni tasvirlar ekan YE.K. Meyyendorf Samarqanddan shimolda doimiy tarzda kuchli qo'shinli garnizonlari bo'lgan O'ratega, Zomin va Jizzax fortlari (qal'alari) hamda Jom, Qoratepa va Yangiqo'rg'on shaharlari joylashganligini qayd qiladi (Aslida Jom va Qoratepa shaharlar toifasiga kirmagan. Muallifning ta'kidlashicha, Samarqanddan sharqda, Zarafshon daryosi boshlanishiga yaqin joyda kichkina Fan shaharchasi joylashgan. Mahalliy aholidan olgan ma'lumotlariga tayangan YE.K. Meyyendorf Zarafshon daryosi Qorako'lga qadar birorta ham ko'l hosil qilmasligini, bu esa arab geograflarining ma'lumotlariga zid ekanligini, ushbu daryo bo'yab Fulg'or, Mug'iyan va Kashtut shaharlari joylashganligini yozadi. Albatta yirik qishloqlarni "shahar" deb ataganda muallif adashgan. YE.K. Meyyendorf ma'lumotlariga ko'ra, o'sha kezlarda Samarqandning shimolidan oqib o'tuvchi daryo (Zarafshon) Quvondaryo deb atalgan. O'zining quyi oqimida ushbu daryo ikkiga bo'linib, shimoliy o'zani Vobkentdan g'apb tomondagi dalalarga singib ketgan. Buxoro yaqinida Zarafshon daryosi janubga burilib, Amudaryoga 40 chaqirim qolganda Qorako'l ko'lini (Dengizko'l) hosil qilgan. Kichik kanallar orqali undan oqib chiquvchi suvlar Chorjo'yga qadar yetib borgan. Mazkur kanallar orqali dalalar sug'orilganligiga asoslanib, o'sha kezlarda Dengizko'l chuchuk suv manbaiga ega bo'lganligi haqidagi xulosaga kelish mumkin. Muallifning qayd qilishicha, Samarqanddan janubda Urgut, Panjikent, Urmitan, Qoratepa va Katilas shaharlari joylashgan. Qarshi yoki Naxshab qamrab olgan hududiga ko'ra, ancha yirik shahar bo'lib, u asosiy savdo yo'lida joylashgan. Hirotdan yoki Kobuldan keladigan karvonlarning bir qismi Qarshida to'xtab, shu yerdan Buxoroni chetlab o'tib, Samarqandga yo'l olganlar[7].

P.I. Demezona va I.V. Vitkevichana ham o'zlarining hisobotlarida ham Samarqand haqida ma'lumotlar berishgan. Jumladan, Aytishim kerakki, ko'plab mullalar va Shayxulislomning o'zi kelgan bu qadimiylar poytaxt Samarqand kundan-kunga tashlandiq bo'lib bormoqda. Masjid va madrasalar xarobaga aylanib, o'qish uchun mullalar Buxoroga borishga majbur. Buxoroda 60 tagacha madrasa bor, ular ozmi-ko'pmi boy tartibga solingan. Har bir madrasada xon tomonidan tayinlangan o'z mustakofi bor. Bu madrasa tufayli gaaloglar yoki vaqflarni toplashi va pulni o'qituvchilar (mudaris) o'rtasida taqsimplashi shart bo'lgan kurator men ularning talabalariman. Maktablar (maktab) juda ko'p. Ular har bir masjidda mavjud. Ularda bolalar Qur'onning birinchi bobini va ibodat paytida yeng ko'p takrorlanadigan oxirgi uchtasini o'qish,

yozish va kuylashni o‘rganadilar, chunki ular boshqalarga qaraganda ancha kam. Bu maktablar dastlab g‘alati taassurot qoldiradi-ular butun ko‘cha sathidan bir necha metr balandlikda ko‘tarilgan platformada joylashgan. Ichkariga kirganingizdan so‘ng, nima uchun bunday qilinganligini tushunasiz. Barcha bolalar joylashtirilgan[8].

Samarqand qal’asi juda katta; bu makonda Qutbi-Choxardyaxum qabristoni, Amir saroyi bor, unda har bir xonlikda mashhur ko‘k tosh bor. Uning amirligiga shubha qoldirmaslik uchun har bir taxtga o‘tirgan hukmdor albatta o‘tirishi ushbu taxda kerak, hokimning uyi, bir nechta masjidlar va xususiy odamlarning uylari ham Samarcanda mavjudligini ta’kidlagan.

Amir-Temur maqbarasi. U baland gumbaz bilan qoplangan baland 8 ko‘mirli binoga joylashtirilgan; bu inshootning ichki qismi ikkita xonadan iborat: 1-chi, Amir Temur qabr toshini o‘rab turgan masjidning o‘ziga xos ibodatxonasi bor, uning qavati oq marmar plitalar bilan qoplangan, devorlari Qur’on yozuvlari bilan qoplangan va ba’zi joylarda juda yaxshi saqlangan. xuddi shu toshdan o‘yilgan panjara bilan o‘ralgan marmar poydevordagi 2-xonada Temurning qabr toshi bor, uning balandligi uch fut va uzunligi 4-5 fut bo‘lgan 6 fut uzunlikdagi kesilgan piramida shakliga yega, uning yuqori qismiga joylashtirilgan, rangi to‘q-yashil rangga aylanib, qora rangga aylanadi va u qora rangga aylanadi. juda yaxshi sayqallangan. Nodirshoh Samarcandni olib ketayotganda uni o‘ziga olib kelishni buyurdi va bu holda u ikkiga bo‘lindi, bu yodgorlik atrofida Amir-Temur oilasining qabr toshlarini tashkil yetuvchi oq marmar plitalar bor. Biz tasvirlab bergen xona ostida ular deyarli to‘rt oyoqqa tushadigan kripto bor, ularda yuqorida aytib o‘tilgan shaxslarning tobatlari bor va ular dafn yetilgan joylar yozuvlar bilan marmar plitalar bilan ko‘rsatilgan[9].

Yana bir ma’lumot beruvchi elchi va sayyohlardan biri G. Bogoslovsky bo‘lib, uning keltirgan maxlumotlarida Samarcandda uy 5,000 ta, va qadar 25,000 nafar aholisi, qaysi, unga ko‘ra, ko‘p o‘zbeklar bor. 85 tagacha masjid bor yedi, ulardan bittasi Samarcand bek tomonidan qurilgan va buxoroliklar tomonidan juda hurmatga sazovor bo‘lgan. G. Bogoslovskiyning so‘zlariga ko‘ra, Samarcand xaroba loy devor (atrofi 13,5 verst) va vaqt – vaqt bilan jarlik shaklida bo‘lgan keng xandaq bilan o‘ralgan yedi-bu yerda tol daraxtlari o‘rmoni va kichik oqim bor yedi. Har kuni kichik bozorlar bor yedi, u yerda siz barcha kerakli hayot materiallarini sotib olishingiz mumkin yedi, lekin g ga ko‘ra asosiy bozorlar. Xaftada ikki marta – yakshanba va payshanba kunlari tashkil yetilgan bo‘lib, ularga Buxoro shahri va boshqa atrofdagi shahar va qal’alardan savdogarlar tashrif buyurishgan. N. Xanikovning so‘zlariga ko‘ra, Samarcandning yirik bozorlari seshanba va yakshanba kunlari ishlagan. iqtisodiyotni tavsiflab, u Samarcand mulklarida dehqonchilik va bog‘dorchilik rivojlanganligini, tog‘li hududlarda chorvachilik ustun bo‘lganligini, bundan tashqari bu yerda yog‘och va minerallar: oltingugurt, selitra, temir, ko‘mir

va oltin qazib olingenligini ta'kidlaydi. tegirmon shahar orqali oqib o'tadigan kanallar va daryolar bo'ylab joylashgan edi.

Samarqanddagi qo'y teri zavodi faoliyati ham diqqatga sazovordir. Bu zavodda ishlov berilgan terilar Rossiya va bir qancha Yevropa davlatlari bozorlarida sotilgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Samarqand shahriga xorijiy Sharq va G'arb mamlakatlari tadbirkorlari oqib kela boshladilar. 1893 yilda Turkiston general-gubernatorining ruxsati bilan Samarqandga katta guruh-italiyaliklar, greklar va nemislar keldi[10].

Turkiston general-gubernatorligi tomonidan xorijiy tadbirkorlarga Rossiya sanoat korxonalari ehtiyoji uchun zarur bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi zavod va fabrikalar ochishga, savdo shahobchalari tashkil qilishga ruxsat berildi. Kelgan italiyaliklar toshtaroshlik ishlari bilan shug'ullanganlar. Italiyalik toshtaroshlardan Nikolo Kardini va Jovani De Tonilar o'zlarining toshtaroshlik sexini tashkil etganlar.

Foydalanimgan adabiyotlar

1. Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. – СПб., 1843. – С.100.
2. Костенко Л.Ф. Средняя Азия и водворение в ней русской гражданственности. – СПб., 1870. – С. 56.
3. Файзиев А.Ф. История Самарканда в первой половине XIX века (учебное пособие).– Самарканда, 1992.–С.5.
4. Абу Тохир Хожа. Самария. Тошкент: Мерос, 1989. Б. 14
5. Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. – СПб., 1843. – С.100.
6. Туркестанский сборник, 1872-1873. – С.139.
7. Борис А. Путешествие в Бухару. Часть III. – Москва, 1850. – С.224
8. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. Москва, 1975. – С. 94
9. Записки о Бухарском ханстве (Отчёты П.И. Демезона и И.В. Витковича). Москва 1983. – С.41-45
10. Обзор Самаркандской области за 1891 год. – С. 16